



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA OCHIQ MA'LUMOTLAR PORTALINING HUQUQIY ASOSI.

Choriyeva Sevinch Fayzulla qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda ochiq ma'lumotlar portalining huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Ochiq ma'lumotlar portali orqali davlat organlarining faoliyati, byudjet mablag'lari, xaridlar va boshqa muhim ma'lumotlar fuqarolar va tadbirkorlar uchun oshkora boladi. Bu esa shaffoflik, javobgarlik, va fuqarolar nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *korrupsiya, elektron platforma, davlat boshqaruvi, ochiq malumotlar, fuqarolar nazorati.*

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvining samaradorligi va korrupsiyaga qarshi kurashish milliy iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlikning asosiy mezonlaridan biridir. Xususan, Prezident tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida ochiq ma'lumotlar portali tizimini zamon talablariga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni tadbqiq etish, shu nuqtai nazardan, ochiq ma'lumotlar portallari (open data portals) orqali davlatning shaffofligi va fuqarolarning axborotga erkin kirishini ta'minlash muhim vazifa etib belgilandi. 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Unda davlat organlari faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni jamoatchilik uchun ochiqlikni ta'minlash, fuqarolar va OIV ishtiroki orqali boshqaruv jarayonini monitoring qilish, korrupsiya xavfli bo'lgan sohalarda ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirish asosiy maqsad qilib belgilanga Davlat ma'lumotlariga kirish imkoniyati va ochiq hukumat ma'lumotlarining mavjudligi korrupsiya darajasini kamaytirishga profilaktik va ijobiy tasir ko'rsatishi mumkin. Umumiy qabul qilingan fikr shuki, davlat sektori ma'lumotlarini ochish va qayta ishlatish — yaxshi boshqaruvni, samaradorlikni va fuqarolarning ishtirokini oshiradi.¹³

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 5 mart kunidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishidagi nutqida "Islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va gov — bu korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to'liq tasdiqlaydi. Korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko'rayotgani, bu global xavf ekanidan dalolat. Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi", deya alohida ta'kidlab o'tdilar.¹⁴

¹³ <https://data.worldbank.org/>

¹⁴ https://www.transparency.org/en/cpi/2024?gad_source=1&gad_campaignid=15272914516&gbruid=0AAAAADud0D-YTb75KNUKei1zaW2I2 Qp3&gclid=EALalQobChMIjoaxqpK6kQMVepiDBx30jiU5EAAAYASAAEgJmTPD_BwE



Konstitutsiyada birinchi marta ochiqlik va hisobdorlik prinsiplari alohida ustuvor yo'nalish sifatida huquqiy mustahkamlandi. Davlat byudjeti ochiqligi, ijro hokimiyati faoliyatida korrupsiyaga qarshi choralar korish majburiyati va shaffoflik konstitutsiyaviy darajada belgilab qo'yilishi — korrupsiyani bartaraf etishda huquqiy kafolatlarning yangi bosqichiga qadam qo'yilganini anglatadi. Shuningdek, davlat byudjetini shakllantirish «ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida» amalga oshirilishi, davlat organlariningdek xalq oldida hisobdorligi, ijro hokimiyati faoliyatida ochiqlik va korrupsiyaga qarshi choralar korishi davlatning asosiy vazifasi etib belgilab qo'yilgan.¹⁵

Byudjetning ochiqligini ta'minlash maqsadida "Ochiq byudjet" openbudget.uz axborot portali oz faoliyatini boshladi. Davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini taminlash, internet tarmog'ida ochiq ma'lumotlarni va boshqa axborotlarni joylashtirib borish belgilangan "Raqamli Ozbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Bu davlat va jamiyat ochiqlik darajasini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashishni ta'minlashga qaratilgan aniq mexanizm.

O'zbekistonda data.gov.uz - ochiq ma'lumotlar portali 2019-yilda ishga tushdi. Ushbu platforma davlat idoralari va mahalliy davlat hokimiyatining byudjet xarajatlari, davlat xaridlari, statistik ma'lumotlar, yer va mulk reystrlari ochiq tarzda taqdim etadi.¹⁶

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qomitasi tomonidan my.soliq.uz portali ham joriy etilgan bo'lib, ushbu portal davlat xizmatlarini raqamlashtirish va inson omilini kamaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. Portal orqali soliq to'lovchilarga 27 xil ochiq ma'lumotlar taqdim etiladi. Bu portal orqali tadbirkorlar va fuqarolar o'z soliqlari bo'yicha hisob-kitobni shaffof ko'rishlari mumkin. Bu jarayon soxta ma'lumotlar kiritish, hujjatlarni soxtalashtirish va soliqdan bo'yin tovlash kabi holatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Davlat xaridlari bo'yicha qonun qabul qilingani, tanlov va tender raqamlashib, sog'lom raqobat bo'lgani uchun o'tgan yili 14 trillion so'm budjet mablag'i tejaldi.¹⁷

Jahon bankining fikriga ko'ra, ochiq hukumat ma'lumotlari — ko'plab davlat siyosati va rivojlanish yutuqlarining katalizatori sifatida qaraladi. Hukumatning ilgari yashirilgan faoliyatlari, qarorlari va xarajatlariga yorug'lik tushirish orqali ochiq hukumat ma'lumotlari fuqarolik jamiyatining hukumat faoliyatini kuzatish qobiliyatini mustahkamlash va aniq ijtimoiy javobgarlik natijalariga erishishga yordam berishi kutilmoqda.¹⁸

Shuningdek, Transparency Internationalning Global Corruption Barometer (GCB) — bu eng yirik mamlakatlararo sorovnoma bo'lib, unda fuqarolarning korrupsiya haqidagi fikrlari va tajribalari yig'iladi. 2013 yilda Transparency International 107 mamlakatda 114,000 dan ortiq odam bilan korrupsiya haqidagi fikrlarini bilish

¹⁵ <https://odin.opendatawatch.com/>

¹⁶ <https://www.transparency.org/en/what-is-corruption>

¹⁷ <https://Главная>

¹⁸ lex.uz/mCorruption in Uzbekistan: Transparency international reports decline | Qalampir.uz



maqsadida intervyu o'tkazdi. Biz ushbu hisobot natijalari orqali qaysi sohalarga ko'proq etibor qaratish kerakligini aniqlash va ochiq ma'lumotlarning ushbu sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashda qanday rol oynashi mumkinligini o'rganishimiz mumkin.¹⁹

O'zbekiston 2025-yil holatiga ko'ra, Open Data Inventory(ODIN) reytingida 198ta davlat orasida 83ball bilan 12-o'rinni egallagan. Bu 2023- yildagi 30-o'rin bilan solishtirganda ancha yuqoriga ko'tarilganini ko'rsatadi. Bu aynan yuqoridagi islohotlarning samarali ijro etilayotganligi natijasi sifatida namayon bo'lmoqda. Singapur, Finlandiya, Estoniya davlatlari bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori o'rinlarni egallagan.

Estoniya ochiq malumotlar reytingida muvaffaqiyatli rivojlanishiga quyidagi faktorlar sabab bo'lgan. Estoniyada 2001 -yilda Hukumat tomonidan X-Road milliy axborot almashinuvi platformasini yaratgan. Har bir davlat va xususiy sektor organi o'z ma'lumotlarini boshqaradi, lekin ular xavfsiz va shaffof tarzda bir - biri bilan bog'langan. Bu ma'lumotlar tez va ishonchli almashiladi, korrupsiya xavfi sezilarli kamayadi. Shuningdek, ochiq malumotlarga oid qonunchilik 2001 -yildan boshlab rivojlangan. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va fuqarolarga ma'lumot kirish huquqi qat'iy taminlangan. Ochiq malumotlar strategiyasi, qonunlar va siyosatlar muntazam yangilanadi. Estoniya ODIN kabi xalqaro indekslarda muntazam kuzatiladi.²⁰

Shuningdek, Open Data Watch ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ochiq ma'lumotlar portalida bazan datasetlar ko'rinmaydi yoki umuman mavjud emasligi kuzatiladi va ro'yxatda "Ma'lumotlar yo'q" deb ko'rsatilgan holatlar ham mavjud. Bu portalning kontent darajasi past ekanini anglatadi, yani ko'p ma'lumotlar tizimga kiritilmagan yoki jamoatchilik uchun ochiq emas. Bu fakt shuni anglatadiki, portal rasmiy statistik va byudjet ma'lumotlarini yetarli darajada taqdim eta olmaydi. Fuqarolar va tadqiqotchilar uchun qidiruv samarasi past.

Shuningdek, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi davlat organlarining ochiqlik majburiyatlari monitoringini o'tkazgan. Natijalarga ko'ra, 132 ta vazirlik va idoradan 63 tasida e'lon qilinishi lozim bolgan axborotning 50 % dan kamrog'i e'lon qilingan.²¹

O'zbekiston ochiq malumotlar portalida rasmiy ravishda datasetlar taqdim etishni maqsad qilgan bo'lsa ham, ma'lumot uzatish standartlari DCAT-AP(ma'lumotlar katalogini bir xil formatda tashkil qilish standarti), SDMX (statistik ma'lumotlarni almashish) bo'yicha amaliyot hali to'la yolg'a qo'yilmaganligi kuzatiladi, buning belgisi sifatida portaldagi datasetlar umumiy statistik formatlarda tizimlashtirilmagani ko'rinadi.²²

¹⁹ <https://anticorruption.uz/uz>

²⁰ Global Corruption Barometer - Wikipedia

²¹ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

²² <https://www.worldbank.org/ext/en/home>



(DCAT-AP, SDMX) bo'yicha amaliyot hali to'la yo'lga qo'yilmaganligi kuzatiladi, buning belgisi sifatida portaldagi datasetlar umumiy statistik formatlarda tizimlashtirilmagani ko'rinadi. Ma'lumotlar siyosati mamlakatdagi korrupsiyaga qarshi siyosatlar bilan yaqindan bog'liq bo'lishi yoki integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi muhimdir. Har qanday ma'lumotlarni ochish jarayonida ochiq ma'lumotlar jahon miqyosida qabul qilingan ochiqlik standartlariga muvofiq taqdim etilishi kerak, yani ochiq formatlarda bo'lishi, ochiq litsenziyaga ega bo'lishi, imkon qadar bepul taqdim etilishi, yaxshi tuzilgan, to'liq va o'z vaqtida bo'lishi kerak.²³

Davlatlar ko'pincha qaysi ma'lumotlar to'plamini birinchi navbatda ochish kerakligini belgilashi zarur, chunki davlat sektori saqlayotgan ma'lumot va ma'lumotlar hajmi odatda juda katta bo'lib, ularni bir zumda ochish imkonsiz. Davlatlar birinchi navbatda oshkor etilishi va qayta ishlatilishi eng katta ta'sirga ega bo'ladi deb hisoblangan ma'lumotlar to'plamlarini tanlashi kerak. Xususan, jamoatchilik javobgarligiga oid ma'lumotlar eng yuqori ustuvorlikka ega bo'lishi lozim.

Dunyodagi tajriba shuni ko'rsatadiki, nashr etilgan ochiq ma'lumotlarning katta qismi davlat tartibga soluvi yoki rasmiy ma'lumot siyosatining to'g'ridan-to'g'ri natijasi emas. Shu bois, rasmiy korrupsiyaga qarshi va ochiq ma'lumot siyosatini yaratish bilan birga, davlatlar tegishli ma'lumotlarni taqdim etishda faollik ko'rsatishi va buni o'zlarining shaffoflik va javobgarlik madaniyatining ajralmas qismi sifatida amalga oshirishi lozim.

O'zbekiston ham jahon tajribalarini o'rgangan holda ochiq malumotlar portalini yangi cho'qqiga olib borish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda . Bunga yuqorida keltirilgan Estoniya tajribasini qo'llagan holda, tizimni takomillashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalar imzolab, amalga oshirish lozim. Estoniya tajribasidan O'zbekiston uchun eng foydali jihatlar X-Road kabi interoperabil tizim, ochiq byudjet va tender portallari, fuqarolarni jalb qilish mexanizmi, xalqaro standartlarga mos metadata va real vaqt monitoringini joriy etish orqali O'zbekiston portallarini shaffoflik va korrupsiyaga qarshi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://data.worldbank.org/>
2. https://www.transparency.org/en/cpi/2024?gad_source=1&gad_campaignid=15272914516&gbraid=0AAAAADud0D-YTb75KNUKei1zaW2I2Qp3&gclid=EAIAIQobChMIjoaxqpK6kQMVepiDBx30jiU5EAAYASAAEgJmTPD_BwE
3. <https://odin.opendatawatch.com/>
4. <https://www.transparency.org/en/what-is-corruption>
5. <https://Главная>

11. <https://data.egov.uz/>



6. [lex.uz/mCorruption in Uzbekistan: Transparency international reports decline](https://lex.uz/mCorruption%20in%20Uzbekistan%3A%20Transparency%20international%20reports%20decline)
| [Qalampir.uz](https://qalampir.uz)

7. <https://anticorruption.uz/uz>

8. Global Corruption Barometer - Wikipedia

9. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

10. <https://data.egov.uz/>

11. <https://www.worldbank.org/ext/en/home>